



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 154-158 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

LOYIHA BOSHQARUVI – VILOYAT QURILISH SANOATINI RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA



Pulatov Shaxron Axmedovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Biznesni boshqarish” kafedrası doktoranti

Annotasiya. Bugungi kunda boshqaruvning barcha sohalarida loyiha boshqaruvi o'z o'rnini topmoqda. Jumladan qurilish sohasini jadal rivojlantirish va innovasion texnologiyalarni qo'llashga qaratilgan ko'plab nazariy va amaliy ishlanmalar bajarilgan bo'lib ijobiy samara bermoqda. Mazkur maqolada viloyatdagi iqtisodiy o'sishning barqaror manbalarini aniqlash, investisiya faolligi va ijtimoiy infratuzilmaning holatlarini 2017-2024 yillar bo'yicha statistik ma'lumotlarni kompleks tahlil qilish asosida qurilish sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini ochib berish vazifasi quyilgan.

Kalitli so'zlar: Investisiya, loyiha boshqaruvi, qurilish ishlari, mulkchilik shakllari.

Аннотация. Сегодня управление проектами находит свое место во всех областях менеджмента. В частности, было проведено множество теоретических и практических разработок, направленных на стремительное развитие строительной отрасли и использование инновационных технологий, и они приносят положительные результаты. Задача данной статьи – выявить устойчивые источники экономического роста в регионе, раскрыть состояние и тенденции развития строительной отрасли на основе комплексного анализа статистических данных об инвестиционной деятельности и состоянии социальной инфраструктуры за 2017-2024 годы.

Ключевые слова: Инвестиции, управление проектами, строительные работы

Abstract. Today, project management is finding its place in all areas of management. In particular, many theoretical and practical developments aimed at the rapid development of the construction industry and the use of innovative technologies have been carried out and are yielding positive results. This article is tasked with identifying sustainable sources of economic growth in the region, revealing the state and development trends of the construction industry based on a comprehensive analysis of statistical data on investment activity and the state of social infrastructure for 2017-2024.

Keywords: Investment, project management, construction work.

Kirish

Iqtisodiyotni samarali rivojlantirish uchun investision-qurilishning katta ahamiyati sohada loyiha boshqaruvi mexanizmni takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Makroiqtisodiy darajada investision-qurilish kompleksida loyiha boshqaruvi mexanizmini shakllantirish va rivojlantirishga hissa

qo'shadigan muhit yaratildi. Ushbu sohadagi haqiqiy qadam investision-qurilish kompleksida zamon talablariga javob beradigan loyiha boshqaruvi tizimini qayta tashkil etishdir. Ushbu chora-tadbirlar loyiha boshqaruvi jarayoni subektlari o'rtasida yangi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini tezlashtirishga yordam berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Loyiha boshqaruvining rivojlanishi masalalari bilan bir qator xorijiy va mamlakatimiz olimlarining asarlarida bayon etilgan. Xususan, K.Xeldman, R.Nyuton, K.Grey, V.S.Zubenko, K.V.Klimov, A.O.Lisisyn, I.I.Mazur, V.D.Shapiro, T.A.Sharipova, B.B.Alimov Z.M.Isakova, I.A.Usmanov, X.T.Buriyev [1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11] va boshqalar.

Shu bilan birga, olib borilgan nazariy ishlanmalarni tahlili Samarqand viloyati qurilish amaliyotida loyiha boshqaruvi konsepsiyalarini yetarlicha yoritilmaganligi mazkur muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni guruhlash, tizimli, tahlil va sintez, statistik va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Samarqand viloyati mamlakatimiz iqtisodiyotida yetakchi hududlardan biri hisoblanib, qurilish sohasi orqali infratuzilmani yangilash, turarjoy va ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish, investisiya loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda. Viloyat iqtisodiyotining o'sishi qurilishda loyiha boshqaruvini rivojlanishiga bog'liqdir. Qurilish faoliyati samaradorligi esa viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib, u iqtisodiy, texnik va tashkilotchilik ko'rsatkichlar majmui orqali ifodalanadi. Investision-qurilish kompleksi faoliyati samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar iqtisodiyotning real sektoridagi rivojlanish jarayonlarini ochib berish, xususan, viloyatda iqtisodiy o'sishning barqaror manbalarini aniqlash, investisiya faolligi va ijtimoiy infratuzilmaning holatini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Bu ko'rsatkichlarning har biri viloyatning iqtisodiy salohiyati, resurslardan foydalanish darajasi va ijtimoiy barqarorlikka ko'rsatayotgan ta'sirini ochib berishda muhim ahamiyatga egadir. Xususan:

1. Viloyatda investision siyosatning maqsadlari va asosiy xususiyatlari
2. Qurilish ishlarining hajmi va tarkibiy tuzilishi
3. Qurilish kompleksida korxona va tashkilotlar soni
4. Qurilishda band bo'lgan aholi soni

Investision-qurilish kompleksining viloyat iqtisodiyotdagi o'rnini yanada to'liq baholashda uning asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar tarkibidagi ulushini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihaviy boshqaruv jarayoni investisiya faolligining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning 2017–2024 yillar davomidagi dinamikasi quyidagi jadvalda o'z aksini topadi (1-jadval).

1-jadval

**Samarqand viloyati rivojlanishida investisiya va qurilish ishlarining
ko'rsatkichlari¹**

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Asosiy kapitalga investisiyalar, mlrd. so'm	4384,2	7061,4	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1	28946,9
Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarda qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	2336,78	3721,36	4312,01	6478,13	8008,5	11085,42	8538,08	9118,28
Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarda qurilish ishlari ulushi, %	53,3	52,7	42	44,2	51,2	58,6	33,2	31,5

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmi jadal sur'atlarda o'sish tendensiyasiga ega. 2017 yilda mazkur ko'rsatkich 4384,2 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 28946,9 mlrd so'mga yetgan va bu qariyb yetti barobarga yaqin oshganligini anglatadi. Investisiyalar hajmidagi o'sish bilan bir qatorda investisiya tarkibidagi qurilish ishlari ham jadal sur'atlar bilan bir maromda oshib borganligini kuzatishimiz mumkin. Asosiy kapitalga investisiyalarda qurilish ishlari ulushining oshib borishi iqtisodiy samaradorlikning oshishidan dalolat beradi.

Samarqand viloyati qurilish sanoatida tashkilotlari soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. Qurilish bozorining alohida segmentlarini nazorat qilgan trestlar va birlashmalar o'rniga ko'plab mustaqil kichik va o'rta qurilish korxonalar maydonga kirib, sog'lom raqobatni rivojlantirishga va loyiha boshqaruvi mexanizmlarini rivojlantirishga yordam beradi. Qurilish sanoatidagi korxona va tashkilotlarning 95 % dan ortig'i nodavlat mulkchilik shakllariga tegishli. Bu, birinchi navbatda, davlat tomonidan doimiy ravishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasidir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa sohalari va tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmidagi ulushni oshirish orqali ham namoyon bo'lmoqda. Qurilish kompleksida nodavlat sektorining rivojlanish dinamikasini bajarilgan qurilish ishlari hajmidan kuzatish mumkin. Samarqand viloyati investision-qurilish jarayonida loyiha boshqaruvi holatini tahlil qilamiz.

Investision-qurilish kompleksining yana bir muhim ko'rsatkichlaridan biri mehnat bozorida aholi bandligini ta'minlashdagi roli hisoblanadi. Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishda qurilish sanoati barcha iqtisodiyotlarda ish o'rinlari yaratishning asosiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

manbai sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar va o'tish davrlarida ushbu soha aholi uchun daromad manbasi bo'lib xizmat qilgan hamda ishsizlik darajasini pasaytirishning samarali vositasi bo'lgan. Hozirgi kunda ham "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish" strategiyasi doirasida qurilish sohasi hududiy iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim drayver sohalardan biri sifatida belgilangan.

Loyiha boshqaruvi konsepsiyasini ommalashtirishda qurilish kompleksida faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar soni ularda band bo'lgan aholi soni hamda qurilish tashkilotining o'rtacha kattaligi ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda viloyatda amalga oshirilayotgan yirik investision loyihalar va qolaversa aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida viloyat markazida qurilayotgan yuzlab turar joy binolari qurilishini amalga oshirish uchun loyiha boshqaruvi korxonalariga ehtiyoj oshib bormoqda va shunga mos ravishda ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. 2017-2024 yillar bo'yicha qurilish tashkilotlarining tahlili keltiramiz.



1- rasm. 2017-2024 yillarda Samarqand viloyati qurilish sanoatida ishlaydigan o'rtacha xodimlar soni tahlili².

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan 2017-2022 yillar davomida qurilish tashkilotlarida ishlaydigan o'rtacha xodimlar soni kamayib borgan bo'lsa, 2023-2024 yillarda xodimlarning o'rtacha sonini keskin oshganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi tahlillarimizga qaraydigan bo'lsak ushbu yillar davomida qurilish ishlari hajmi jadal sur'atlar bilan oshib borgan. Ushbu yillarda qurilish tashkilotlari sonining keskin kamayishi birinchidan bugungi kunda qurilayotgan bino va inshootlarga davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan qo'yilayotgan keskin talablar bo'lsa, ikkinchi tomondan tenderda qatnashishdagi talablar, ya'ni shaffof tizimga kirish, tashkilotning sifat menejment tizimini qabul qilishi va h.k. Qolaversa 2024 yilda Samarqand viloyatida davlat sektorining ulushi oldingi yillarga qaraganda ancha ko'payganligi bilan izohlanadi.

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Umuman olganda tahlil natijalari viloyatda qurilish majmuasida faoliyat olib borayotgan korxona va tashkilotlar faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatib beradi. Birinchidan, qurilish sanoatida investision-qurilish ishlab chiqarishi faoliyatning jadallashishi, investisiyalar hajmini oshishi hamda umuman investision-qurilish kompleksida rivojlanish borayotganligidan dalolat beradi. Ikkinchidan mehnat bozorida qurilish sanoati faoliyatining iqtisodiy jozibadorligining oshishini hamda qurilish sanoati bozorining jadal sur'atlar bilan barqaror rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan indikatorlar va ko'rsatkichlarning tahlilidan xulosa qilishmumkinki investision-qurilish kompleksida loyiha boshqaruvi amaliyotini rivojlantirish qurilish ishlari samaradorligini oshirishga sezilarli hissa qo'shmoqda. Mavjud tajribadan kelib chiqqan holda loyiha boshqaruvi usullarini yanada rivojlantirish zarurligi nomoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ким Хелдман. PMP Project Management Professional Practice Tests: 2021 Exam Update Ким Хелдман, Ванина Мангано.
2. Ричард Ньютон. Управление проектами от А до Я. Подробнее на [livelib.ru: https://www.livelib.ru/author/195287/top-richard-nyuton](https://www.livelib.ru/author/195287/top-richard-nyuton).
3. Грей К.Ф. Управление проектами: Практическое руководство / Ф-Грей Клиффорд, Эрик У. Ларсон // Пер с англ. - М.: Издательство «Дело и Сервис», 2003. - 528 с.
4. Зубенко В.С. Управление проектами развития регионального инвестиционно-строительного комплекса. Автореферат. дис. ... канд. экон. наук. - Москва, 2003. - 32 с.
5. Климов К.В. Управление проектами инвестиционно - строительного комплекса региона. Автореферат. дис. ... канд. экон. наук. -Москва, 2007. - 23 с.
6. Лисицын, А.О. Проект и проектное управление/ А. О. Лисицын // Вестник международного института управления. - 2017. - № 2. - С. 62-64.
7. Мазур, И.И. Управление проектами / И.И. Мазур, В.Д. Шапиро, Н.Г. Ольдерогге. - М.: Омега-Л, 2007. - 664 с.
8. Шарипова Т.А. Правовое регулирование проектного управления в Узбекистане // Журнал «Юридический вестник». — 2021. — № 7. — С. 45-58.
9. Alimov B.B. Risk management in investment projects. International Journal of Marketing and Technology, 12(08), 2022. 2249-1058.
10. Isakova Z.M. Loyiha boshqaruvi tizimlarini joriy etish: tavsifi va innovasion iqtisodiyotda amalga oshirish shartlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2019 yil. - 110-115 b.
11. Усманов И.А., Буриев Х.Т. Совершенствование расчёта экономического эффекта от сокращения сроков строительства // Alisher Navoi international congress on social sciences & humanities. Tashkent. May 22-23, 2023. 119-126 б.

